

PUDRAT SHARTNOMASI № O-B-2022/3

“13” dekabr 2022-yil

Samarqand shahri.

«Buyurtmachi» deb yuritiladigan Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi nomidan tashkilot nizomi asosida ish ko'ruvchi N.Sanaqulov, keyingi o'rinlarda, «MIRAQAS» X.K. nomidan korxonada nizomi asosida ish ko'ruvchi T.Rustamov ikkinchi tomondan matnda keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladi, mazkur shartnomani quyidagi shartlar asosida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING MAZNUNI.

«Buyurtmachi» Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumani Jonkel MFY 4N-620 «Mundiyon q-Jonkal q-Mang'iton q» yo'lini 2-4,5 km qismiga asfalt qoplamasini yotqizish ishlarini bajarishni «Pudratchi»ga topshiradi, «Pudratchi» esa shartnoma shartlarini to'liq bajarilishini o'z zimmasiga oladi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-sonli qarori, Oliy Majlis Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori hamda Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani kengashining VI-66-206-7-96-K/22-sonli qarori)

2. SHARTNOMA BAHOSI VA MUDDATI.

2.1. Shartnoma bahosi 1 175 536 448 (bir milliard bir yuz yetmish besh million besh yuz o'ttiz olti ming to'rt yuz qirq sakkiz) so'mni tashkil etadi. (Ilova-1 shartnomaning ajralmas qismi). Shartnoma 2022-yil “13” dekabr 2022-yil 31-dekabrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Tomonlarning kelishu bilan shartnoma muddati uzaytirilishi mumkin.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI.

3.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma bo'yicha ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- avtomobil yo'llarni joriy ta'mirlash, tizimdagi yo'l xizmatining Samarqand viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi oldidagi majburiyatlari to'g'risidagi ko'rsatmalarga qattiq rioya qilish;
- barcha yo'l ishlari mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajm va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni buyurtmachiga topshirish;
- buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzish, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;
- texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof-muhitni, o'tkazilgan daraxtlarni va yo'l mintaqasini muhofaza qilish bo'yicha zarur, shuningdek tadbirlarni bajarilishini ta'minlash.

3.2. «Pudratchi» mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni o'z kuchi bilan subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda avtomobil yo'llarini texnik soz holatda saqlash bo'yicha buyurtmachi oldida to'liq javob beradi.

3.3. «Pudratchi» ta'mirlash uchastkalarida transport qatnovini uzluksiz va xavf-xatarsiz o'tib turishi uchun javobgardir.

3.4. «Pudratchi» ga shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda uch oy maboynida surunkali belgilangan rejalarini bajarmagan taqdirda qonunda belgilangan tartibda intizomiy va moliyaviy chora ko'riladi.

3.5. «Pudratchi» obyektida bajargan ishlarning hajmlarini ijro hujjatlarini, qilingan sarf-xarajatlarni buyurtmachi tomondan mazkur obyekt uchun biriktirilgan texnik kuzatuvchi bilan har oyning 30-kunigacha obyektning o'zida ko'rib chiqadi va to'liq ma'lumotni «Buyurtmachi» ga topshiradi.

3.6. Mazkur shartnomani bajarish uchun «Buyurtmachi»:

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan «Pudratchi» tomonidan yo'llarni joriy ta'mirlash bo'yicha va boshqa qabul qilingan majburiyatlar funksiyalariga rioya etilishini nazorat qilish;

- «Pudratchi» dan joriy ta'mirlash ishlarini qabul qilib olishni ta'minlash;

- «Pudratchi» ning barcha murojaatlarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

«Pudratchi» va «Buyurtmachi» ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

4. TO'LOV VA HISOB-KITOB SHARTLARI.

4.1. «Buyurtmachi» «Pudratchi» ga shartnoma bo'yicha yo'lni joriy ta'mirlash ishlari uchun moliyalashtirish jadvaliga muvofiq har oyda, oy hisobidan 30 % avans to'lovi va qolgan oylardan bo'nak (avans) chegirilib, qolgan to'lov amalga oshiradi.

4.2. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga bo'nak (avans) berish va joriy moliyalashtirish, moliyalashtirilgandan so'ng ishlarni bajarilgan ishlar dalolatnomasi asos hisoblanadi.

4.3. «Buyurtmachi» mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab, 30 kun mobaynida bajarmagan taqdirda «Pudratchi» bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda «Buyurtmachi»ni yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish va shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir.

Bunda «Buyurtmachi» Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

4.4. Buyurtmachi tomonidan «Pudratchi» ning bajarilgan ta'mirlash ishlari bo'yicha dalolatnomalar, ijro sxemalari va kerakli hujjatlari to'liq taqdim etilmaganda moliyalashtirish to'xtatib turiladi.

5. ISHLARNI BAJARISH.

5.1. «Buyurtmachi» avtomobil yo'llarni joriy ta'mirlash ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek «Pudratchi» tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

5.2. Agar «Buyurtmachi», «Pudratchi» va uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatisiz bajarilganligi aniqlasa u holda «Pudratchi» o'z kuchlari bilan ta'mirlash qiymatini ko'paytirmasdan, ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

5.3. Ishlar boshlangan paytdan ular tugallanganigacha «Pudratchi» yo'llarni joriy ta'mirlash uchun ko'rik daftarini, ta'mirlashda ishlarni bajarish daftarini yuritadi, daftarda butun ishlarni borishi «Buyurtmachi» va «Pudratchi» ning o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar aks ettiriladi.

- Agar «Buyurtmachi» ishlarning borishi va sifatidan yoki «Pudratchi» ning qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

5.4. «Pudratchi» o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha-hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pastportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

5.5. «Pudratchi» «Buyurtmachi» tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni o'zaro belgilangan muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarni qurish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6. SHARTNOMANI BEKOR QILISH.

6.1. «Buyurtmachi»:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin ta'mirlashni boshlanishi «Buyurtmachi» ga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra «Pudratchi» tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, «Pudratchi» tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda,
- «Pudratchi» tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishga olib keladigan darajada buzilganda.

6.2. «Pudratchi»:

- ishlarning bajarilishi pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra «Buyurtmachi» tomonidan bir oydan ortiq muddatda to'xtatib qo'yilganda,
- «Buyurtmachi» tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomalarning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega,
- shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1. Tomonlarning bir shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

- Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun «Buyurtmachi», «Pudratchi» kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 20% foizidan oshmasligi lozim.

- shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashda asossiz ravishda bosh tortganligi uchun «Buyurtmachi» «Pudratchi» ga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortganligi uchun so'mmani 5% foizi miqdorida jarima to'laydi.

- «Pudratchi» obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatini buzganligi uchun «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4% foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 50% foizidan oshmasligi lozim.

- Muddati o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda lozim darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

8.1. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal eta olmasa, ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Samarqand shahar iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

9. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI.

9.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday holatda qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javogarlikdan ozod etiladilar.

9.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Pudratchi» va «Buyurtmachi» ishlarni davom ettirish uchun qanday choralar ko'rilishini yuqori tashkilotlar va tegishli mutaxassislar hamkorligida muhokama qiladilar.

10. ALOHIDA SHARTLAR.

10.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari me'yorlari qo'llaniladi.

10.2. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

10.3. Mazkur shartnoma taraflar tomonidan imzolanib g'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

11. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

BUYURTMACHI

Nomi: Samarqand viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi
Manzili: Samarqand shahar, Nabiyeva ko'chasi, 3-uy
Shaxsiy X/R: 4017 2286 0182 1570 4520 4118 003
STIR (INN) 200 711 637
XXTK (OKNX) 97400
Tel/faks: 234-26-08, 234-26-59
Moliya Vazirligi G'aznachiligi
x/r: 23402000300100001010
Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi
Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni, 1
STIR (INN): 201122919
MFO: 00014
XXTK (OKNX): 97160

Tel: 231-11-52

Imzo:

Muhr:

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " _____ " _____

N.Sanaqulov.

PUDRATCHI

Nomi: MIRAQAS X/K
Manzili: Kattaqurgon tuman Miraqas Q/Q
x/r: 20208000301072589001
STIR (INN) 202143266
XXTK (OKNX) 42110

Bank nomi Garant Bank Ishtixon filiali

MFO:00311

Imzo:

T.Rustamov

Muhr:

2022-yil " _____ " _____

O-B-2022/3-sonli shartnomaning 3-varag'i

2022 yil 13 dekabr kuni tuzilgan
O-B-2022/3-sonli shartnomaga 1 -ilova

Samarqand viloyat Kattaqo'rg'on tumani Jonkel MFY 4N-620 "Mundiyon q-Jonkal q-Mang'iton q" yo'lini 2-4,5 km
qismiga asfalt qoplamasini yotqizish

BAJARISH VA MOLİYALASHTIRISH JADVALI

| № | Bajarilgan ishlarning nomi | Qiymati | Bajarish | | Moliyalashtirish muddati |
|---|---|----------------------|----------------|---------------|--------------------------|
| | | | muddati | qiymati | |
| 1 | Qurilish mantaj ishlari 30% | 352 660 934,4 | 31.12.2022-yil | 1 175 536 448 | 2022 yil |
| 2 | Qurilish davomida to'lab beriladigan summa | 822 875 513,6 | | | |
| | Jami: | 1 175 536 448 | | | |



Bajaruvchi





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYATI HOKIMLIGI MOLIYA BOSH
BOSHQARMASI KATTAQO‘RG‘ON TUMAN HOKIMLIGI
MOLIYA BO‘LIMI**

In: 141400, Kattaqo‘rg‘on tumani, Payshanba sh.A.Navoyi ko‘chasi 3-uy. tel.:(66) 414-12-28,
e-mail: kattakurgan.t-moliya@SAM.mf.uz

2022 yil 07 oktyabr

02/02-32-90

Kattaqo‘rg‘on tuman

**Samarqand viloyati avtomobil
yo‘llari bosh boshqarmasi
boshlig‘iga**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi "Byudjet jarayoiida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PK-5072-sopli Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021 yil 22 apreldagi KQ-213-IV-sonli "Maxalliy byudjet mablaglari sarflanishida jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash tugrisida" Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 20 sentyabrdagi KQ-406-IV-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida "Ochiq byudjet" elektron platformasi 2022 yil ikkinchi mavsumida "Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta‘mirlash bilan bog‘liq tadbirlar" yunalishida g‘olib deb topilgan 4 ta umumfoydalanishdagi yo‘llarga alohida hisob-raqamlar ochilib, mablag‘lar to‘liq moliyalashtirilganligini ma‘lum qilamiz. Ushbu g‘olib deb topilgan 4 ta umumfoydalanishdagi yo‘llarni tamirlashda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

*(Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashi Qarori, tasdiqlangan manzilli
ro‘yxat, hisob raqamlar ro‘yxati ilova qilinadi)*

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi
moliya bo‘limi mudiri v.b



M.Obbozov

“ТАСДИКЛАЙМАН”

Каттавүргөн туман хокимдиги Жамоатчилик
фибри “Оренбуржет” асосла талбирларин
драк-дентиринг бахолош, таллаш олиш хамда
исрешини мониторинг кылнш буйича
Шучи гурух раис
Ж.Насриддинов



Каттавүргөн тумани буйича 2022 йил иккинчи боскичда голлиб булган жамоатчилик фибри асосла шакланган талбирларин бахолош бахолош кылнш буйича
МАНИЛЛИН РУИНАТ

| № | Таклиф ID рақами | Махалла номи | Баласла сакловчи | Голлиб таклиф маълумотлари | | Туллаган овозлари сонги | Амалда оширишинг янксанган киймати | Хаксангла ажратылган* | Бунртмачи ташклат |
|---|------------------|---------------------------------------|-------------------------|--|--|-------------------------|------------------------------------|-----------------------|-------------------------------|
| | | | | Киссача матнун | Киссача матнун | | | | |
| "Фукарлар ташаббуси жамгармаси" да шакланган маблаг | | | | | | | | | |
| 1 | 1060600014 | Каттавүргөн МФЙ (4600) | Самантуйул вилоят АЙХББ | Каттавүргөн туман Каттавүргөн туман ХТБ | Каттавүргөн туман Каттавүргөн туман ХТБ | 6447 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Фукарлар ташаббуси жамгармаси |
| 2 | 1060600025 | Ойжон МФЙ (4553) | Самантуйул вилоят АЙХББ | Ойжон МФЙнинг шакланган ассосий бундон асфалтлаштириш | Ойжон МФЙнинг шакланган ассосий бундон асфалтлаштириш | 6237 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Фукарлар ташаббуси жамгармаси |
| 3 | 1060600015 | Каттавүргөн туман Найман МФЙ (4563) | Каттавүргөн туман ХТБ | Самантуйул вилоят Каттавүргөн туман Каттавүргөн туман ХТБ | Самантуйул вилоят Каттавүргөн туман Каттавүргөн туман ХТБ | 5629 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Фукарлар ташаббуси жамгармаси |
| 4 | 1060600064 | Каттавүргөн туман Жонкел МФЙ (4575) | Самантуйул вилоят АЙХББ | Жонкел МФЙ 4Н-620(Жонкел-Мангитон бундалиши) а/бунлини 2-4.5км оралигини таъмирлаш | Жонкел МФЙ 4Н-620(Жонкел-Мангитон бундалиши) а/бунлини 2-4.5км оралигини таъмирлаш | 5604 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Фукарлар ташаббуси жамгармаси |
| 5 | 1060600005 | Каттавүргөн туман Болтабек МФЙ (4578) | Самантуйул вилоят АЙХББ | Болтабек МФЙ Жашер кишлоктаги ассосий бунли 3 км асфалт килиш. | Болтабек МФЙ Жашер кишлоктаги ассосий бунли 3 км асфалт килиш. | 5583 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Фукарлар ташаббуси жамгармаси |
| 6 | 1060600003 | Каттавүргөн туман Кадан МФЙ (4545) | Каттавүргөн туман ХТБ | Туман хаак таллими бунлинига каршили 50-51-67-77-98- умумталим махтабларига парта стол стул мебел жихозлари манаший эскирнганлини инебатга олиб юкорнда келтирилган махтабларга жихот харид килиш лалим. | Туман хаак таллими бунлинига каршили 50-51-67-77-98- умумталим махтабларига парта стол стул мебел жихозлари манаший эскирнганлини инебатга олиб юкорнда келтирилган махтабларга жихот харид килиш лалим. | 4352 | 600 000 000,0 | 600 000 000,0 | Каттавүргөн туман ХТБ |
| Таксимланмаган маблаг | | | | | | | | 172 299 544 | |

М.Тешас
Н.Жулиатов
Л.Рахмонов
А.Эргашев
М.Оббозов

Хаак депутатлари Каттавүргөн туман Кенгаши накли
Туман хокимдининг 1-Урибосари
Туман хокимдининг курилнш масалалари бунича Урибосари
Туман хокимдиги кууридаги жамоатчилик кенгаши накли
Туман хокимдиги молли бунлини мудирини в.б



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

141408, Kattaqo‘rg‘on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2022 - yil 28 - sentabr

VI-66-206-7-96-K/22

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumanda “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larining ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayoiida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarori hamda Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarorlari ijrosini ta‘minlash va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida g‘olib chiqqan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilish maqsadida xalq deputatlari tumani Kengashining VI chaqiriq 66-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha ishchi komissiyasining hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi fuqarolar tomonidan berilgan loyiha takliflardan ovoz berish jarayonida eng ko‘p ovoz olgan va ishchi komissiya tomonidan g‘olib deb topilgan 6 ta loyiha takliflarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan 6 600,0 mln (olti milliard olti yuz million) so‘m mablag‘ 1-ilovaga asosan ajratilsin.

3. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish hamda erishilgan natijalar to‘g‘risida hisobotini Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Moliya bo‘limi (M.Obbozov), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Xayriyev) ajratilayotgan mablag‘lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov)ga “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” hisobidan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida ijtimoiy tarmoqlar orqali va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (K.Ahmedov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



J.Nasriddinov

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashining
2022 yil 28 sentabrdagi
VI-66-206-7-96-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Kattaqo'rg'on tumani bo'yicha 2022-yil ikkinchi bosqichda g'olib bo'lgan jamoatchlik fikri asosida shakllangan
tadbirlarni moliyalashtirish bo'yicha**

MANZILLI RO'YXAT

| t/r | G'olib taklif ma'lumotlari | | | | | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Haqiqatda ajratilgan* | Moliyalashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, budjet parametri) | Buyurtmachi tashkilot |
|--|----------------------------|--------------------------|---|---|-------------------------|--|-----------------------|--|---|
| | Taklif ID raqami | Mahalla nomi | Balansda saqlovchi | Qisqacha mazmuni | To'plagan ovozlari soni | | | | |
| "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" da shakllangan mablag' | | | | | | | 6 772 299 544 | x | x |
| 1 | 1060600014 | "Kattako'rpa" MFY (4600) | Samavtoyo'l viloyat AYXBB | Kattako'rpa qishlog'i ichki yo'lini asfaltlash | 6447 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samavti yo'l viloyat AYXBB |
| 2 | 1060600025 | "Oyjon" MFY (4553) | Samavtoyo'l viloyat AYXBB | "Oyjon" MFY shag'allashtirilgan asosiy yo'lini asfaltlashtirish | 6237 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samavtoyo'l viloyat AYXBB |
| 3 | 1060600015 | "Nayman" MFY (4563) | Kattaqo'rg'on tumani Xalq ta'limi bo'limi | Kattaqo'rg'on tumani 31-umumta'lim maktabida sport zali mavjud emas. Sport zali bo'lsa farzandlarimiz uchun katta imkoniyatlar yaratilgan bo'lardi. Maktabga sport zali qurilishi uchun | 5629 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Kattaqo'rg'on tumani Xalq ta'limi bo'limi |
| 4 | 1060600064 | "Jonkel" MFY (4575) | Samavtoyo'l viloyat AYXBB | Jonkel MFY 4N-620 a/ (Jonkel-Mang'iton yo'nalishi) yo'lini 2-4.5 km oralig'ini ta'mirlash | 5604 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samavtoyo'l viloyat AYXBB |

| | | | | | | | | | |
|-------------------------------|------------|-----------------------|---|--|------|-----------------|--------------------|----------------------------------|---|
| 5 | 1060600005 | “Boltabek” MFY (4578) | Samavtoyo‘l viloyat AYXBB | “Boltabek” MFY Jalayer qishlogidagi asosiy 3 km yo‘lni asfalt qilish. | 5583 | 1 200 000 000,0 | 1 200 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Samavtoyo‘l viloyat AYXBB |
| 6 | 1060600003 | “Kadan” MFY (4545) | Kattaqo‘rg‘on tumani Xalq ta‘limi bo‘limi | Tuman Xalq ta‘limi bo‘limiga qarashli 50-51-67-77-98-umumta‘lim maktablariga parta, stol, stul mebel jihozlari ma‘naviy eskirganligini inobatga olib, yuqorida keltirilgan maktablarga jihoz xarid qilish lozim. | 4352 | 600 000 000,0 | 600 000 000,0 | Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi | Kattaqo‘rg‘on tumani Xalq ta‘limi bo‘limi |
| Taqsimlanmagan mablag‘ | | | | | | | 172 299 544 | | |